

SAMARQANDNING SAYYOHLIK IMKONIYATLARI VA KAMCHILIKLAR

Juraqulova Farangiz

TDPU tarix fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqandning sayyohlik imkoniyatlarining ortib borishi turistik hududlar ahvoli yaxshilanishi hamda ayrim kamchiliklari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** turizm, sayyohlik, iqtisodiyot, Buyuk ipak yo'li, ziyoratgoh, viza, gid, wf, turistik avtomashinalar.*

Bugungi kunda turizm dunyoning eng yirik va tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, mamlakatlar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishda muhim o'rin tutmoqda. So'nggi yillarda yurtimizda turizmga bo'lgan e'tibor davlat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida baholanmoqda. Jahon Sayyohlik va Turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda turizmning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,3 foizi, jami ish o'rinlarining o'ndan bir qismi, ya'ni 330 million (2018 yilda 319 million) ish o'rni yoki umumiy ish o'rni hajmining 10,4 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ketma-ket to'qqiz yil davomida turizm sohasidagi yalpi ichki mahsulotining o'sishi jahon yalpi ichki mahsulotining o'sishidan yuqori bo'ldi. Xususan, 2019-yilda turizm sohasida yalpi ichki mahsulotining o'sishi 3,5%ni, jahon yalpi ichki mahsulotning o'sishi esa 2,5%ni ko'rsatmoqda¹. Samarqand 2750 yoshda, ammo odamlar aytganidek, u "abadiy" yosh". Bu yerda 1500 dan ortiq qadimiy yer osmoni ostida joylashgan me'moriy yodgorliklar va ibodat joylari. 2001

¹ RAXIMOVA N.A, MANSUROVA N.SH., RAXIMOV Z.A. SAMARQAND VILOYATI TURISTIK SALOHİYATINING TAHLILI. ИҚТИСОД ВА МОЛІЯ / ЭКОНОМІКА И ФИНАНСЫ 2022, 6(154).b.44

yilda Samarqand YUNESKO merosi ro'yxatiga "madaniyatlar chorrahalar" nomi bilan kiritilgan. Samarqandni chinakam noyob shahar, deb atash mumkin! Amerika Qo'shma Shtatlaridagi nufuzli "The Haffington post" nashri tomonidan Samarqand shahri jahondagi inson o'z umri davomida albatta borib ko'rishi shart bo'lgan 50 ta shaharlardan biri deb e'lon qilinishi, ko'plab xorijiy turistlarni yanada jalb etish imkonini yaratadi. Dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni - qalb bog'i, sharq durdonasi, dunyoning ko'zgusi va hatto yer yuzi deb atashganlarida ham, ular bu go'zal shaharning barcha go'zalligi va boyliklarini tasvirlab berolmagan bo'lardilar. Bu hududda 148 dan ortiq tarixiy-arxitektura yodgorliklari aniqlangan. Shu sababli Samarqandni "Ochiq osmon ostidagi muzey" deb atashadi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Samarqand o'zining tabiiy-jo'g'rofiy joylashishi, shirin mevalari, zilol suvi, mehmondo'st-bag'rikeng xalqi hamda savdo imkoniyatlari bilan azal-azaldan jahon e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta o'zining "Sayohatnoma asarida "Dunyoda Samarqand kabi havosi musaffo, osmoni moviy, zamini ko'm-ko'k, suvi zilol, aholisi go'zal xulqli va xorijdan kelgan insonlarga muhabbat va do'stona munosabat qiladigan jannatmonand shaharni ko'rmadim¹", deya ta'rif etadi. Samarqand viloyatida jami 1607 ta tarixiy-madaniy meros obyektlari mavjud. Shulardan 975 ta arxeologiya madaniy meros obyekti, 562 ta arxitektura, 36 ta monumental san'at yodgorligi va 34 ta diqqatga sazovor joylar mavjud². Samarqand viloyatidagi jami tarixiy madaniy meros obyektlari Respublikamizda mavjud tarixiy-madaniy meros obyektlarining qariyb 20 foizini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, Samarqand viloyati respublika viloyatlari ichida tarixiy-madaniy turizm salohiyati bo'yicha asosiy o'rinda turadi. Samarqand viloyatiga 2016-yilda 76,2 mingta xorijiy fuqaro tashrif

¹ Т.Ш. Эвадуллаев. САМАРҚАНДДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МУҚАДДАС ҚАДАМЖОЛАРНИНГ ЎРНИ. "ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ҲУДУДЛАР ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.. Б 2020.Б.81

² Махмудов С.Х. Самарқанд вилояти баъзи тарихий-маданий туристик объектларнинг молиявийиқтисодий кўрсаткичлари таҳлили. ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ҲУДУДЛАР ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.. Б 2020.Б.161

buyurgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 179,6 mingtaga yetdi va respublika bo'yicha atigi 7,0 foizni tashkil etdi¹.

Bilamizki, turizmning yo'nalishlari ko'p tarmoqli bo'lib, masalan, Misrda ko'proq arxitektura yo'nalishi, Turkiyada esa gastronomik turizm yevropaning aksariyat mamlakatlarida to'g' turizmlari rivojlangan. Shunga muvofiq tarzda O'zbekistonda ham so'nggi yillarda olib borilgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida Turizmning ko'plab yo'nalishlari jumladan, Ziyorat turizmi, gastronomik turizm, me'morchilik turizmi kabi yo'nalishlarda katta ishlar qilindi. Jumladan, mutafakirlarning yubeylari asnosida ularning qayta ta'minlanishi bunda xalq qiluvchi ro'l o'ynadi. Hadis ilmining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan yirik alloma, buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rnini va mamlakat keng jamoatchiligining takliflarini hisobga olib hamda ushbu merosni asrab-avaylash, qadrlash va jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida 1998-yilda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanishini Vazirlar Mahkamasi qaror qildi², Abu Mansur Moturidiyning 1130-yilligi, Xoja Axror Valiyning 600-yilligi nishonlandi. Ushbu tadbirlar davomida Samarqanddagi buyuk allomalar mangu qo'nim topgan Chokardiza qabristoni obod etilib, Moturidiy xazratlarining qabrlari ustida maqbara qayta qad rostladi. Shuningdek, Mirzo Ulugbek rasadxonasi xududida yangi muzey binosi, keng maydon va so'lim xiyobon barpo etildi. Ziyorat turizmi Vatanimizning deyarli barcha viloyatlarida o'z rivojlanish imkoniyatlariga ega, ayniqsa, Samarqand viloyatida ushbu turizm yuksak taraqqiy etgan. Chunki Samarqandda ko'pla tarixiy inshootlar va ziyoratgohlar mavjud va ular jahon turistlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ziyorat turizmi bo'yicha jahon reytingida O'zbekiston so'nggi yillar ichida 34-o'rindan 9-

¹<https://lex.uz/>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.03.2018 yildagi PQ-3609-son

² <https://lex.uz/IMOM-AL-BUXORIY-TAVALLUDINING-HIJRIY-QAMARIY-TAQVIM-BO-YICHA-1225-YILLIGINI-NISHONLASH-TO-G-RISIDA>. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi 217-son qarori.

o‘ringa ko‘tarilib oldi¹. Samarqand ziyorat turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan viloyatlardan hisoblanadi. Samarqand shahridagi Xo‘ja Doniyor, Imom Moturidiy, Xo‘ja Abdu Darun, Hazrati Xizr, Murod Avliyo ziyoratgohi, Shohi Zinda yodgorlik majmuasi, Ruhobod maqbarasi, Xo‘ja Is‘hoqi Valiy masjid-ziyosatgohi, shuningdek, Samarqand tumanidagi Xo‘ja Ahror Valiy, Xo‘ja Abdu Berun, Oqdaryo tumanidagi Mahdumi A‘zam, Jomboy tumanidagi Shayx Xudoydod Vali va Bulung‘ur tumanidagi Xo‘ja Hofiz Merosiy, Nurobod tumanidagi Hazrati Dovud ziyoratgohi, Payariq tumanidagi Imom Buxoriy majmuasi, Urgut tumanidagi Chor Chinor ziyoratgohlari joylashgan. Bu ziyoratgohlar Samarqand turistik salohiyatini yanada oshirmoqda. Shunga qaramay turizm sohasini rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan omillar ham bordir. Ularga viza tizimidagi to‘siqlar, ortiqcha rasmiyatchiliklarning borligi sayyohlar oqimiga salbiy tasir etadi. To‘g‘ri so‘nggi yillarda 90 ga yaqin mamlakatga viza tizimi ochildi lekin bu yetarli darajada emas. Samarqand viloyati misolida ba‘zi bir kamhiliklar haqida ;

-deyarli barcha obyektlar yo‘l ustida joylashganligi o‘z navbatda turizmning rivojlanishiga olib kelmoqda. Turistlar uchun alohida avtobuslar tashkil etilgan. Lekin yengil avtomobillar yo‘q . Bu mashinalar sonini oshirish kerak

-viloyatda tarixiy –me‘moriy va diniy ziyorat turizmni rivojlangan. Bu holat viloyatga tashrif buyurgan chet ellik sayyoh 10-15 kunda albatta zerikadi. Bu hududda o‘zining milliyligi bilan boshqa istirohot bo‘glarida ajralib turadigan istirohot bog‘lari, zamonaviy binolar barpo etilsa bu ham turistlar oqimini yanada oshiradi

-viloyatda umumiy ovqatlanish joylari faoliyatini tashkil qilishga e‘tiborni yanada kuchaytirish lozim. Chunki, har bir xalqning milli taomlari bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham bir qancha milliy taomlari mavjud. Masalan, yevropaliklar birinchi marta ko‘rayotgan ovqatini oldin yaxshilab o‘rganib, tayyorlanish texnologiyasini ko‘rib, keyin iste‘mol qiladi. Balki ular o‘zlarining Yevropa

¹ Turdiyev M SAMARQAND VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINING TARIXI VA ISTIQBOLLARI. Международный научный журнал часть I «Научный импульс». 2023. В. 676

taomlarini iste'mol qilishni xohlashar yoki, turistlar orasida vigiterianlar bor bo'lishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda restoran va kafelarda turli xil davlatlarning kamida bir turdagi ovqatlarini tayyorlash yo'lga qo'yilsa, ularning xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilansa, sayyohlarning ehtiyojlari o'z vaqtida qondirilsa, viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar mamnun bo'lishadi. Bu esa turistlar oqimining oshib borishiga sabab bo'ladi

- viloyatga kelayotgan turistlar uchun yaratilgan xizmatlar va mehmonxonalarga qo'yilgan narxlar bir muncha yuqori. Bu turistlar sonining keskin kamayishiga olib kelishi mumkin. Mehmonxonalarga chegirmalar qo'yilsa yaxshi bo'lar edi.

- Sayohatchilarni kundalik ekskursiyadan keyingi vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ko'proq tadbirlar uyushtirish zarur. Samarqandga kelayotgan turistlarning aksariyat qismi Yevropa mamlakatlaridandir. Shu bois ularning kuy-qo'shiqlari yangrab turuvchi tadbirlar tashkil qilish har bir turist uchun o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Bir narsani aniq aytish mumkinki, turistlar ichida asosan nafaqa yoshidagi kishilar 90-95 % ni tashkil qiladi.

-umuman olganda turistlar tashrif buyuradigan joylarga wf tizimini yo'lga qo'yishni joriy etish kerak. Turistlarga yo'l boshchilik qilayotgan gidlar sonini ham yana ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximova N.A.Mansurova N.Sh. Samarqand viloyati turistik salohiyatining tahlili .T.2022.
2. Samarqandda ziyorat turizmini rivojlanishida muqaddas qadamjolarining o‘rni “ O‘zbekistonni to‘p 10 turistik xududlar qatoriga kiritish istiqbollari va barqaror rivojlanishimkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy amaliy anjuman materiallari .b.2020
3. Исматуллаев, Ф., & Ахмедова, С. (2019). ЎЗБЕКИСТОН–ИТАЛИЯ ҲАМКОРЛИГИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 28-28.
4. Ismatullaev, F. (2010). International cooperation in the field of tourism. F Ismatullaev. Society and Management N, 2.
5. qizi Juraqulova, F. T. (2024). O ‘ZBEKISTONNING JAXONGA TURIZM MAMLAKATI SIFATIDA OCHILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(2), 156-161.